

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/2>

LEGAL ANALYSIS AND MODERN SIGNIFICANCE OF THE CANADIAN CONSTITUTION

Askaraliyev Ozodbek Oybek oglu

University of World Economy and Diplomacy
Faculty of International Law, 1st Year Student
E-mail: ozodbekaskaraliyev10@gmail.com

Murodova Durdona Oybekovna

Scientific Supervisor, Teacher of the Department of "International
Law and Public Legal Sciences" University of World Economy and Diplomacy

Asqaraliyev Ozodbek Oybek o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti
Xalqaro Huquq Fakulteti, 1-Kurs Talabasi
E-mail: ozodbekasqaraliyev10@gmail.com

Murodova Durdona Oybekovna

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti
Ilmiy Rahbar, "Xalqaro Huquq Va Ommaviy
huquqiy Fanlar" Kafedrası O'qituvchisi

Abstract

This article provides a legal analysis of the Constitution of Canada, exploring its historical evolution and contemporary significance in a democratic framework. The study examines the transition from the British North America Act of 1867 to the full patriation of the Constitution in 1982. Key aspects such as the Canadian Charter of Rights and Freedoms, the division of powers between federal and

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/2>

provincial governments, and the unique constitutional amending formulas are discussed in detail.

Keywords: Constitution of Canada, federation, patriation, Charter of Rights and Freedoms, constitutional monarchy, parliamentary democracy, 7/50 formula.

KANADA KONSTITUSIYASINING HUQUQIY TAHLILI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Kanada Konstitutsiyasining tarixiy rivojlanishi, uning o'ziga xos huquqiy tuzilishi va zamonaviy demokratik jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 1867-yilgi Britaniya Shimoliy Amerika aktidan boshlab 1982-yilgi patriatsiya jarayonigacha bo'lgan davr, shuningdek, Kanada Fuqarolik huquqlari va erkinliklari xartiyasining o'rni yoritilgan. Maqolada federatsiya tamoyillari, hokimiyatlar bo'linishi va Konstitutsiyani o'zgartirishning murakkab mexanizmlari huquqiy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Kanada Konstitutsiyasi, federatsiya, patriatsiya, Huquq va erkinliklar xartiyasi, konstitutsiyaviy monarxiya, parlament demokratiyasi, 7/50 formulasi.

Аннотация

В данной статье анализируется история формирования, правовая структура и современное значение Конституции Канады. Рассматривается процесс эволюции от Акта о Британской Северной Америке 1867 года до патриации 1982 года, которая закрепила полный суверенитет страны. Особое внимание уделяется Канадской хартии прав и свобод, принципам федерализма и механизмам внесения поправок в высший закон государства.

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/2>

Ключевые слова: Конституция Канады, федерация, патриация, Хартия прав и свобод, конституционная монархия, парламентская демократия, формула 7/50.

Har bir mustaqil davlatning taraqqiyoti va barqarorligi uning asosiy qonuni Konstitutsiyaga bevosita bog'liqdir. Konstitutsiya nafaqat davlat hokimiyati tizimini belgilab beradi, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim o'rin egallaydi. Shu sababli turli davlatlar konstitutsiyalarini o'rganish, tahlil qilish va taqqoslash huquqiy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi. Mazkur maqolada Kanada konstitutsiyasi tahlil qilinadi.

Kanada Konstitutsiyasi Kanadaning oliy qonuni bo'lib, mamlakatni boshqaradigan asosiy qoidalar va tamoyillarni belgilaydi¹. U bir hujjat emas, balki turli qonun va konstitutsion aktlar to'plamidan iborat yig'ma konstitutsiyadir. Konstitutsiya Kanadada parlament hukumatini, federatsiya tuzilishini va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini belgilaydi. Quyida Kanadaning konstitutsiya tarixi, tuzilishi, tamoyillari va xususiyatlari bo'yicha batafsil ma'lumot beriladi.

Birinchi navbatda, Kanada konstitutsiyasining tarixiga yuzlanish maqsadga muvofiqdir. Kanada ilk bor 1867-yilda Britaniya parlamenti tomonidan qabul qilingan "British North America Act, 1867" (hozirgi nomi bilan Konstitutsiya Akti, 1867) orqali tuzildi². Mazkur hujjat Kanadaning Shimoliy Kanada (hozirgi Ontario va Kvebek), Nova-Skotya va Nyu-Bransvik viloyatlarini birlashtirib, "Kanada Dominion" nomli federatsiya sifatida tashkil etilishiga asos soldi. Shu tariqa, Kanada mustaqillikiga birinchi qadam tashlandi va hukumatning tuzilishi hamda viloyatlar hokimiyati o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti qonuniylashtirildi. Statute of Westminster 1931-yilgi qonun 1867-yildan keyin Kanadaning tashqi mustaqilligi asta-sekin oshib bordi. 1931-yilda qabul qilingan Statute of

¹Constitution Act, 1982, s.52. <http://laws-lois.justice.gc.ca/eng/Const/FullText.html>

²Constitution Act, 1867 (formerly British North America Act, 1867).<http://laws-lois.justice.gc.ca/eng/Const/page-1.html>

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

Westminster parlamentdan Kanadaga to'liq suverenlik berish imkonini berdi³. Biroq Kanadaning konstitutsiyasini o'zgartirish uchun hali ham Buyuk Britaniya parlamenti roziligi zarur edi. Masalan, 1930-yillarda Kanadaning mintaqaviy qonunlariga tuzatish kiritilishi asosan London parlamenti orqali amalga oshirilgan. 1982-yilgi patriatsiya va Konstitutsiya Akti. 1982-yilda Buyuk Britaniya "Canada Act 1982" qonuni asosida Kanada Konstitutsiyasi patriatsiya qilindi⁴, ya'ni uni Britaniya parlamentidan to'liq mustaqil qildilar. Shu bilan birga 1982-yilgi Konstitutsiya Akti qabul qilindi va Konstitutsiyaga Fuqarolik Huquqlari va Erkinliklari Xartiyasi (Charter)⁵ kiritildi. Endilikda Kanadaning konstitutsiyasini o'zgartirish mexanizmi va umumiy qoidalari Xalqaro parlament ya'ni Buyuk Britaniya aralashuviz amalga oshirildi. 17-aprel 1982-yilda Qirolicha Yelizaveta II tomonidan e'lon qilingan bu Akt Kanada konstitutsiyasini to'liq mamlakat ichida o'zgartirish uchun zarur bo'lgan yangi protseduralarni o'rnatdi. Hozirgi kunda 1867-yilgi akt 147 bo'limni, 1982-yilgi akt esa 55 moddani o'z ichiga oladi.

Kanada davlatchiligi bir-birini to'ldiruvchi va muvozanatda ushlab turuvchi bir necha ustuvor tamoyillarga asoslanadi. Ushbu prinsiplar nafaqat yozma qonunlarda, balki mamlakatning siyosiy va huquqiy madaniyatida ham katta ahamiyatga ega. Konstitutsiya Kanadaning oliy qonuni bo'lib, barcha qonunlar va harakatlar unga mos bo'lishi lozim. Agar qonun Konstitutsiyaga zid bo'lsa, u kuchsiz hisoblanadi. Masalan, 1982-yilgi Konstitutsiya Akti 52-moddasida: "Kanada Konstitutsiyasi Kanadaning oliy qonuni hisoblanib, unga zid har qanday qonun kuchsizdir" deb belgilangan. Sud hokimiyati qonunlarga sodiq bo'lib, ularga muvofiq ish yuritadi va Konstitutsiyaga rioya qilinishini ta'minlaydi.

³ Statute of Westminster, 1931, UK Parliament. <http://www.legislation.gov.uk/ukpga/Geo5/22-23/4/contents>

⁴ Canada Act 1982 (UK), 1982, c.11. <http://www.legislation.gov.uk/ukpga/1982/11/contents>

⁵ Canadian Charter of Rights and Freedoms, Part I of the Constitution Act, 1982 <http://laws-lois.justice.gc.ca/eng/Const/page-12.html>

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

Sudlar adolatli va xolis qaror qabul qilishga mustaqil bo'lib, ular Konstitutsiyaga zid bo'lgan qonunlarni bekor qilish huquqiga ega.

Kanada - konstitutsiyaviy monarxiya va parlament demokratiyasi bo'lib, hokimiyat xalqqa saylangan organlar va ularning vakillari orqali amalga oshiriladi. Qirol (hozirgi Qirollik oilasi nomidan amalda General-gubernator) qonuniy vakolat egasi, biroq amaliy ijro uchun mas'ullar Bosh vazir va uning ishonchini olgan Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi. Masalan, "Qirol Kanadada ijro kuchiga ega, ammo demokratik jamiyatda uning kuchlari Parlament Xalq Palatasi ishonchiga ega bo'lgan vazirlar maslahatiga binoan qo'llaniladi. Bosh vazir va vazirlar yig'inidan iborat Kabinet mahkum ishlarini Parlament hisob beradigan ijroiya sanaladi". Shu bilan parlament (Xalq Palatasi) hukumatni nazorat qiladi, hukumat esa parlament oldida mas'ul bo'ladi.

Kanada federativ davlat bo'lib, unda davlat hokimiyati vakolatlari federal markaz va provinsiyalar o'rtasida konstitutsiyaviy tartibda bo'linadi.⁶ Federal Parlament Kanadaning barcha hududiga taalluqli ayrim masalalarda qonun chiqaradi, provinsiya parlamentlari esa faqat o'z hududidagi masalalarga oid qonunlar qabul qiladi. Qonunchilik bo'yicha masalan, makroiqtisodiy va milliy muammolar savdo, mudofaa, pul masalalari va hokazolar federal hokimiyatga tegishli, mahalliy masalalar ya'ni ta'lim, sog'liqni saqlash, mulk huquqi, fuqarolik huquqi va boshqalar esa viloyatlarga berilgan. Bunday taqsimot Kanadani federatsiya sifatida tashkil etishda asos bo'lgan.

Kanadaning Federal Konstitutsiya ishiozchilik maqomini ham himoya qiladi. Bunga misol sifatida ingliz va fransuz tillarining rasmiy maqomi, Kanada aholisidagi turli millat va elatlarning huquqlari, shuningdek tub aholiga oid an'anaviy huquqlarni (35-modda) ko'rsatish mumkin. Shu tarzda Konstitutsiya demokratik prinsiplarga, ozchiliklarga hurmat va barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashga asoslanadi.

⁶ Peter W. Hogg, *Constitutional Law of Canada*. Toronto: Thomson Reuters, 2019, pp. 121-128

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

Konstitutsiyada boshqaruv organlari uch tarmoqqa bo‘linadi: qonunchilik, ijroiya va sud. Ular bir-birini muvozanatda ushlab turadi. Qonunchilik tarmog‘i – Qirol (va uning nomidan General-gubernator) hamda Federal Senat va Vakillar Palatasidan iborat Parlamentdir. Ijroiya tarmog‘i (qirol hokimiyatini qonunlar doirasida amalga oshiradigan ijroiya hokimiyat) esa Bosh vazir va Kabinetdan tashkil topgan; ular Parlament oldida mas‘ul hisoblanadi. Lekin muhim jihat bor ya‘ni Kanadada klassik qat‘iy bo‘linish emas, balki “aralash (Westminster modeli)” mavjud. Bu degani Bosh vazir parlament a‘zosi ham bo‘ladi. Sud tarmog‘i – Oliy Sud va quyi sudlardan iborat bo‘lib, ular mustaqil va qonun ustuvorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Sudlar Konstitutsiyaga zid bo‘lgan har qanday qonun yoki harakatni bekor qilishi mumkin. Kanadada hokimiyatlar bo‘linishi mavjud bo‘lsa-da, ular o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi.

Kanada Fuqarolik Huquqlari va Erkinliklari Xartiyasi (1982-yilgi Konstitutsiya Akti, I qismi) barcha kanadaliklar uchun asosiy huquq va erkinliklarni kafolatlaydi⁷. Bu huquq va erkinliklar quyidagicha bo‘limlarga bo‘lingan: Asosiy erkinliklar: Xartiyaning 2-moddasi shaxsga e‘tiqod va din erkinligi, fikr va so‘z erkinligi, matbuot va axborot vositalari erkinligi, tinch yig‘ilish erkinligi hamda uyushish erkinligini kafolatlaydi. Demokratik huquqlar: 3–5-bo‘limlar aholiga saylovlarda ishtirok etish, boshqaruv organlariga saylanish, parlament va provinsiya parlamentlari yillik yig‘ilishlari kabi demokratik protseduralarni ta‘minlaydi.

Harakat erkinligi: 6-moddada kanadaliklarning mamlakat ichida erkin harakatlanish huquqi, ya‘ni istalgan provinsiyaga ko‘chib borish, Kanadaga kirish-chiqish huquqi himoyalangan. Sudga oid huquqlar: 7–14-bo‘limlarda shaxsning hayoti, erkinligi, xavfsizligini himoya qilish, noo‘rin qidiruv va hibsga olishdan himoyalangan, advokat yordami va habeas corpus huquqi, sud jarayonlarida aybni isbotlash majburiyati, vahshiy jazodan ozod bo‘lish, o‘zga

⁷ Canadian Charter of Rights and Freedoms, ss.2–23. <http://laws-lois.justice.gc.ca/eng/const/page-12.html>

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

qonunbuzarlik yuzasidan majburan guvoh bo'lishdan voz kechish va adolatli sudlov qoidalari kabi huquqlar kafolatlanadi. Tenglik huquqlari: 15-moddada barcha shaxs qonun oldida teng, irq, millat, din, jins, yosh va nogironlik kabi omillarga asoslanib kamsitilmaslik kafolatlanadi. Rasmiy tillar huquqlari: 16–22-bo'limlar Kanada bo'yicha ingliz va fransuz tillarini davlat ishlari va sudlarda ishlatish huquqini, shuningdek Nyu-Bransvik provinsiyasida ikkitillikni kafolatlaydi. 23-bo'lim esa fuqarolarni ozchilikdagi maktablaridaona tilida o'qitish huquqiga ega ekanini belgilaydi. Cheklovlar: Charterning 1-moddasida “erkin va demokratik jamiyat sharoitida qonun tomonidan asosan asosli deb ko'rsatilishi mumkin bo'lgan lozimiy cheklovlar” ga ruxsat berilgan ya'ni huquqlar cheklanmagan, biroq ratsional masalalar bilan cheklanishi mumkin. 33-modda esa ba'zi vaziyatlarda parlament yoki provinsiya qonun chiqaruvchilari ma'lum huquq va erkinliklarni vaqtincha o'tkazib yuborish ya'ni “notwithstanding” huquqiga egaligi nazarda tutilgan.

Kanada sudlari Konstitutsiya va Charter ta'min etadigan huquqlarni himoya qilish vakolatiga ega. Sudlar Konstitutsiyaga zid keladigan federal yoki provinsiya qonunlarini bekor qilishi mumkin. Masalan, Oliy Sud va boshqa sudlar fuqarolarning Konstitutsiya va Charterda belgilangan huquqlari buzilgan hollarda tegishli choralar ko'radi va zarur bo'lsa qonunlarni bekor qiladi.⁸ Shu tariqa Xartiya Kanadada fuqarolarning asosiy huquqlarini muntazam himoya qiladi va har bir fuqaroning huquqlari sud orqali ta'minlanadi.

1982-yilgi patriatsiya. 1982-yilda Kanada Konstitutsiyasi patriatsiya qilinib, Britaniya parlamenti to'liq javobgarlikdan voz kechdi. Shu bilan birga Konstitutsiya mustaqil tarzda o'zgartirilishi uchun zarur me'yorlar, ya'ni “Konstitutsiyani o'zgartirish qoidasi” qabul qilindi.

Konstitutsiyani o'zgartirish jarayonlari Konstitutsiya Akti, 1982ning V qismida (38–52-moddalar) belgilangan. Asosiy formula (7/50 formulasi) – 38-bo'lim, 1-bandda ko'rsatilgan. Uning mazmuni shundan iboratki Konstitutsiya o'zgartirish

⁸ Supreme Court of Canada, *Reference re Secession of Quebec*, [1998] 2 SCR 217.

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

bo'yicha odatda Kanada bo'ylab aholining 50 foizini tashkil etuvchi kamida yetti provinsiyaning parlamentlari hamda Kanada Senati va Vakillar Palatasi roziligini talab qiladi. Masalan, Senat vakolatlari yoki senatorlarni saylash tartibi kabi muhim mavzuda, shuningdek mavjud provinsiyalar hududlarini kengaytirishda bunday ulush talab qilinadi.

Unanim konsensus. Konstitutsiyaning ayrim qoidalarini o'zgartirish uchun barcha provinsiyalarning roziligi talab qilinadi (38-bob, 1-banddan farqli - 41-bo'lim). Masalan, Genera'l-gubernator lavozimi va Oliy Sud tarkibi haqidagi o'zgartirishlar to'liq hamma viloyat parlamentlari tomonidan tasdiqlanishi lozim Mintaqaviy va qisqa o'zgartirishlar. 43-bobga ko'ra, faqat ma'lum provinsiyalarga taalluqli o'zgartirishlar shu provinsiyalarning hamda parlament roziligidan so'ng kiritilishi mumkin. Misol tariqasida, 1993-yilda Nyu-Bransvikda rasmiy ikki tilni ta'minlovchi o'zgartirish shunchaki shu provinsiya bilan parlament tomonidan tasdiqlangan. Shuningdek, ayrim o'zgartirishlar faqat Kanadada ikki palatali parlament yoki faqat viloyat qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinishi mumkin (44-45-boblar), masalan, Senat va Vakillar Palatasi tarkibiga oid ba'zi o'zgartirishlar Parlamentga, viloyatlar hukumatlari ichki Konstitutsiyalariga o'zgartirish kiritish esa bevosita o'sha viloyatning nazoratida ekan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 1982-yilgi akti muhim bandlarni o'z ichiga oladi. Masalan, 52-moddada yuqoridagi oliy qonun tamoyili; 33-moddada parlamentga ma'lum hollarda huquq va erkinliklardan ustun turuvchi qonun qabul qilish imkoniyati; 35-moddada tub aholining an'anaviy huquqlari kafolatlangan. Ammo asosan, yuqoridagi tuzatish formulalari va Konstitutsiya oliyligi Kanada konstitutsiyasining o'zgartirilmas asosiy prinsiplari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Kanada Konstitutsiyasi zamonaviy demokratik davlatning barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan muhim huquqiy asos hisoblanadi. U tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanib, bosqichma-bosqich

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

takomillashib borgan hamda bugungi kunda mukammal va puxta tizimga ega bo'lgan konstitutsiyaviy modellardan biridir.⁹

Mazkur Konstitutsiyaning o'ziga xos jihati shundaki, u yagona hujjat emas, balki turli konstitutsion aktlar majmuasidan iborat bo'lib, federativ tuzilma, parlament demokratiyasi va konstitutsiyaviy monarxiya tamoyillariga asoslanadi. Shu bilan birga, unda hokimiyatlar bo'linishi, qonun ustuvorligi va inson huquqlarini himoya qilish kabi asosiy prinsiplar mustahkam o'rin egallagan.

1982-yilda qabul qilingan Fuqarolik Huquqlari va Erkinliklari Xartiyasi esa fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini keng doirada kafolatlab, sud nazorati orqali ularning amalda ta'minlanishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Konstitutsiyani o'zgartirish mexanizmlarining murakkab va muvozanatli tarzda belgilanganligi davlat tuzilmasining barqarorligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Kanada Konstitutsiyasi nafaqat davlat boshqaruvining huquqiy poydevori, balki jamiyatda demokratiya, tenglik va adolat tamoyillarini ta'minlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Uni o'rganish boshqa davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham foydali tajriba va muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Mazkur tajribadan kelib chiqib quyidagi xulosa va takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, markaziy va hududiy hokimiyat organlari o'rtasidagi vakolatlar taqsimotini yanada aniq belgilash davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kanada federativ tizimida vakolatlarning konstitutsiyaviy asosda taqsimlangani siyosiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, fuqarolarning konstitutsiyaviy madaniyatini oshirish va aholining Konstitutsiya mazmunidan xabardorligini kuchaytirish muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Kanada tajribasi shuni ko'rsatadiki, fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini yaxshi bilishi demokratik institutlarning samarali ishlashiga xizmat qiladi.

⁹ Government of Canada, *How Canadians Govern Themselves*, Ottawa, 2023.

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/2>

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini himoya qilishga oid konstitutsiyaviy normalarni xalqaro standartlarga muvofiq holda izchil rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, so‘z erkinligi, tenglik hamda sud orqali himoya institutlarini amaliy jihatdan mustahkamlash demokratik taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Constitution Act, 1867
<https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/Const/page-1.html>
2. Constitution Act, 1982
<https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/Const/page-15.html>
3. Canadian Charter of Rights and Freedoms
<https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/Const/page-12.html>
4. Canada Act 1982
<https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1982/11>
5. Statute of Westminster 1931
<https://www.legislation.gov.uk/ukpga/Geo5/22-23/4>
6. Supreme Court of Canada
<https://www.scc-csc.ca>
7. Government of Canada
<https://www.canada.ca>
8. Department of Justice Canada
<https://www.justice.gc.ca>
9. Encyclopaedia Britannica
<https://www.britannica.com/topic/Constitution-of-Canada>
10. Parliament of Canada
<https://www.parl.ca>